



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN
HAL QILUV QARORI**

Chiroqchi tumani 2023-yil 23-mart 4-1807-2301/84-sonli ish

Chiroqchi tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi A.Qodirov raisligida, sudya yordamchisi A.Chuliyevning kotibligida, Chiroqchi tuman prokurorining katta yordamchisi A.Chulliyev qatnashuvida, da’vogar vakillari X.Qo’ziboyev, M.Toyloqov, N.Eshmurodov (2023-yil 23-martdagi ishonchnoma asosida)lar ishtirokida, [redacted]ning da’vogar “[redacted]” aksiyadorlik jamiyati manfaatida javobgar “[redacted]” fermer xo’jaligiga nisbatan bergan da’vo arizasi bo’yicha ishni Chiroqchi tumanlararo iqtisodiy sudi binosida ochiq sud majlisida ko’rib chiqib, quyidagilarni

aniqladi:

[redacted] da’vogar “[redacted]” aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – da’vogar deb yuritiladi) manfaatida sudga da’vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar “[redacted]” fermer xo’jaligi (bundan buyon matnda – javobgar deb yuritiladi)dan 17.459.369 so’m asosiy qarzdorlikni undirishni so’ragan.

Sud majlisi muhokamasida ishtirok etgan Prokuror katta yordamchisi da’vo arizasida keltirilgan vajlarni qo’llab-quvvatlab, da’vo arizasining so’rayman qismidagi asosiy qarzdorlikka penya summasi ham qo’shib bitta qilib yozilganligini bildirib, da’vo arizasiga aniqlik kiritish haqida ariza taqdim qilib, 13.464.374 so’m asosiy qarz va 3.994.995 so’m penya undirishni so’radi.

Sud majlisi muhokamasida ishtirok etgan da’vogar vakillari da’vo arizada keltirilgan vajlarni qo’llab-quvvatlab, javobgar tomonidan shartnoma shartlariga lozim darajada rioya qilinmasdan iste’mol qilingan elektr-energiyasi bo’yicha qarzdorlik bartaraf etilmaganligini bayon qilib, da’vo talablarini to’liq qanoatlantirishni so’radi.

Sud muhokamasining vaqti va joyi to’g’risida tegishli tarzda xabardor qilingan javobgarlar sud majlisida ishtirok etmadi. Sud O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan buyon matnda - IPK deb yuritiladi)ning 128, 170-moddasiga asosan ishni uning ishtirokisiz ko’rishni lozim deb topdi.

Shunga ko’ra, sud ishda ishtirok etayotgan shaxslarning ish bo’yicha tushuntirishlarini eshitib, da’vo talablarini ish hujjatlari bilan birga o’rganib chiqib, dalillarga huquqiy baho berib, quyidagi asoslarga ko’ra da’vo talabini qisman qanoatlantirishni lozim topadi.

Ish hujjatlari va sud muhokamasi davomida aniqlangan holatlardan ma’lum bo’lishicha, taraflar o’rtasida tuzilgan shartnomaga ko’ra da’vogar elektr-energiyasi yetkazib berish, javobgar esa iste’mol qilingan energiya haqini to’lash majburiyatini olgan.

Ushbu shartnomaga asosan 2023-yil 1-fevral holatida da’vo arizasida ko’rsatilgan elektr-energiyasi bo’yicha qarzdorlik javobgar tomonidan to’lanmagan.

Da'vogarning javobgarga qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to'lab berish haqidagi talabnomasi javobgar tomonidan oqibatsiz qoldirilgan.

Natijada ushbu nizo kelib chiqib, Prokuratura da'vogarning manfaatida qarzdorlikni undirishni so'rab sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan.

Da'vo talabi asoslidir.

Chunki, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (bundan buyon matnda - FK deb yuritiladi)ning 8, 234-moddalariga ko'ra majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqadi.

FKning 236-moddasida majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi, 237-moddasiga ko'ra majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi PF-5059-sonli "Elektr-energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining 3-bandiga muvofiq yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga energiya resurslari oldindan 100 foizlik haq to'lash asosida yetkazib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy (Xo'jalik) sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-sonli qarorining 12-bandiga ko'ra, FKning 333-moddasiga asosan, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqa tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javob beradi deb tushuntirish berilgan.

Ushbu da'vo talabida so'ralgan 13.464.374 so'm asosiy qarzdorlik sud majlisi muhokamasida ishtirok etgan shaxslarning tushuntirishlari, solishtirma-dalolatnoma va ishdagi mavjud hujjatlar bilan o'z tasdig'ini topgan.

Shu sababli, sud da'vogarning asosiy qarzni undirish talabini to'liq qanoatlantirishni lozim topdi.

Shuningdek, da'vogar javobgardan 3.994.995 so'm penya undirish ham so'ralgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi "Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 511-son Qarorining 2-bandida hisob-kitob oyidan keyingi kalendar oy tugagach qarz to'lov muddati o'tgan hisoblanadi va to'lov muddati o'tgan har bir kun uchun to'lov muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida penya hisoblab yoziladi deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy (xo'jalik) sudi Plenumining 2007-yil 15-iyundagi "Majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun mulkiy javobgarlik to'g'risidagi fuqarolik qonun hujjatlarini qo'llashning ayrim masalalari haqida"gi 163-sonli Qarorining 2-bandida sudlar neustoykani undirish to'g'risidagi da'volarni hal qilishda neustoyka miqdorining qonun talablariga muvofiq hisoblanganligi, uning asosiligi, majburiyat buzilishi

oqibatlariga mutanosibligi kabi holatlarni har tomonlama va chuqur muhokama qilib, talab qilingan neustoykaning adolatli miqdorini belgilashlari shartligi, 4-bandida FKning 326-moddasiga muvofiq sud qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilish darajasini, majburiyatda ishtirok etuvchi taraflarning mulkiy ahvolini, shuningdek kreditorning manfaatlarini e'tiborga olib, neustoyka miqdorini kamaytirishga haqli ekanligi begilangan.

Shuningdek, mazkur qarzdorlik da'vogarning o'zi ham shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmasligi oqibatida kelib chiqqan.

Fkning 335-moddasiga ko'ra agar kreditor qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli majburiyatni bajarish mumkin bo'lmasligi yuz berishiga yoki bajarmaslik tufayli yetkazilgan zarar miqdorining ko'payishiga ko'maklashgan bo'lsa, shuningdek kreditor majburiyatni bajarmaslikdan yetkazilgan zararni kamaytirish choralarini qasddan yoki ehtiyotsizlik tufayli ko'rmagan bo'lsa, sud ishning holatlariga qarab to'lanadigan haq miqdorini kamaytirishga yoki kreditorga haq to'lashni batamom rad etishga haqli.

Sud javobgarning mulkiy ahvolini hamda kreditorning manfaatlarini e'tiborga olib, penya miqdorini 1.885.012 so'mga qadar kamaytirishni, penyaning qolgan qismini qanoatlantirishni rad etishni lozim topdi.

IPKning 118-moddasiga asosan, agar da'vogar tomonidan bildirilgan neustoykani undirish haqidagi talab asosli bo'lib, biroq uning miqdori qonunchilikda belgilangan huquqdan foydalanilgan holda sud tomonidan kamaytirilgan bo'lsa, sud xarajatlarining kamaytirilishi hisobga olinmagan holda undirilishi lozim bo'lgan neustoyka summasidan kelib chiqqan holda, sud xarajatlari javobgarning zimmasiga yuklatilishi lozim

Yuqoridagilarga ko'ra, sud da'vo talablarini qisman qanoatlantirib, javobgar hisobidan da'vogar foydasiga 13.464.374 so'm asosiy qarz, 1.885.012 so'm penya va oldindan to'lab chiqilgan 30.000 so'm pochta xarajati, Respublika budjetiga 349.187 so'm davlat boji undirishni, da'voning qolgan qismini qanoatlantirishni rad etishni lozim topdi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118, 128, 170, 176-179, 186, 192-moddalarini qo'llab, sud

q a r o r q i l d i :

Da'vo qisman qanoatlantirilsin.

Javobgar " [redacted] " fermer xo'jaligi hisobidan:

da'vogar " [redacted] " aksiyadorlik jamiyati foydasiga 13.464.374 so'm asosiy qarz, 1.885.012 so'm penya va oldindan to'lab chiqilgan 30.000 so'm pochta xarajati;

Respublika budjetiga 349.187 so'm davlat boji undirilsin.

Da'voning qolgan qismi qanoatlantirish rad etilsin.

Hal qiluv qarori qonuniy kuchga kiringach ijro varaqasi berilsin.

Mazkur hal qiluv qaroridan norozi tomon bir oy muddatda apellatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) mumkin.

Sudya

A.Qodirov